



THE CONCEPT OF "TRANSFORMATION OF SOCIO-PHILOSOPHICAL IDEAS" AND THE CHARACTERISTICS OF ITS MANIFESTATION

Ijod Akhmedov

Director, Associate Professor

Jizzakh Center for Pedagogical Skills

Jizzakh, Uzbekistan

E-mail: xaiddaxcaj2021@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: Social, philosophical, transformation, reform, development, cooperation, law, ideas, ideology, nationality, freedom of speech, self-awareness.

Received: 12.03.25

Accepted: 14.03.25

Published: 16.03.25

Abstract: This article discusses in detail the concept of the transformation of socio-philosophical ideas and the features of its manifestation, the need to look at the renewal of social society with a new perspective and the factors contributing to this need. The article also discusses the developmental reforms of today's Uzbekistan.

“IJTIMOIY-FALSAFIY G‘OYALAR TRANSFORMATSIYASI” TUSHUNCHASI VA UNING NAMOYON BO‘LISH XUSUSIYATLARI

Ijod Axmedov

direktor, dotsent

Jizzax pedagogik mahorat markazi

Jizzax, O‘zbekiston

E-mail: imkoniyat2021@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy, falsafiy, transformatsiya, islohat, rivojlanish, hamkorlik, qonun, g‘oyalar, mafkura, milliylik, so‘z erkinligi, o‘z-o‘zini anglash.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy-falsafiy g‘oyalar transformatsiyasi tushunchasi va uning namoyon bo‘lish xususiyatlari batafsil yoritilgan bo‘lib, ijtimoiy jamiyatni yangilash yangicha nigoh bilan qarashning zarurati va bu zaruratga xizmat qiluvchi omillar batafsil keltirib o‘tilgan. Maqolada bugungi O‘zbekistonning taraqqiyot islohatlari ham keltirib o‘tilgan.

ПОНЯТИЕ «ТРАНСФОРМАЦИЯ СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИХ ИДЕЙ» И ОСОБЕННОСТИ ЕГО ПРОЯВЛЕНИЯ

Идждод Ахмедов

директор, доцент

Джиззакский центр педагогического мастерства

Джиззак, Узбекистан

E-mail: xaqalxa2021@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Социальный, философский, трансформация, реформа, развитие, сотрудничество, право, идеи, идеология, гражданство, свобода слова, самосознание.

Аннотация: В статье подробно рассматривается концепция трансформации социально-философских идей и особенности ее проявления, а также необходимость взглянуть на обновление общества с новой точки зрения и факторы, которые служат этой потребности. В статье также освещаются реформы развития современного Узбекистана.

Dunyoning aksar rivojlangan davlatlarida rivojlanish va qayta qurish davri talab etilmoqda, zero bu talab bugungi ijtimoiy jamiyatning yangicha yuzaga kelayotgan global muammolarini bartaraf etishga qaratilgan ijobiy yondashuvlar va ularning ijtimoiy-siyosiy, falsafiy nuqtayi nazardan ko‘rib chiqish mexanizmlarini yo‘lga qo‘ymoqda.

Yangilanayotgan O‘zbekiston yangi O‘zbekistonda ham ijtimoiy-falsafiy va siyosiy g‘oyalarni tarkib topdirish va bu yo‘ldagi sayi harakatlarni ommalashtirishda bosqichma bosqich o‘tish mexanizmlari ishlab chiqilmoqda, xususan tarixdagi buyuk xizmatlari va jasoratlarini qayta tiklash, nomlarini oqlash (Jadid ma‘rifatparvarlari, quloq siyosati, paxta siyosati natijasida aybsiz jazoga tortilganlar) ko‘rsatmalari berilgan. Fikrimizning asosi sifatida yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning ham “Jadidlar g‘oyasi –Yangi O‘zbekiston strategiyasi bilan har tomonlama uyg‘on va hamohang. Bu haqda Shavkat Mirziyoyev Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat kengashi yig‘ilishida aytib o‘tdi.” Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g‘arb ilm-fan yutuqlari bilan birga ,milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur”,-dedi prezident. Ijtimoiy-falsafiy g‘oyalarni yangicha tartibda tarkib topdirish orqali jamiyatimizda ma‘naviy-mafkuraviy immunitetni yangicha yo‘sinda shakillantirish orqali yangicha global muammolarni bartaraf etish choralari ishlab chiqishga qaratilgan hisoblanadi.

Sh.M. Mirziyoev: «Hammamizni tarbiyalagan, voyaga etkazgan - shu xalq. Barchamizga tuz-nasiba bergan ham - shu xalq. Bizga ishonch bildirgan, rahbar qilib saylagan ham aynan shu xalq. Shunday ekan, biz birinchi navbatda kim bilan muloqot qilishimiz kerak - odamlarimiz bilan. Kim bilan bamaslahat ish tutishimiz kerak - avvalo xalqimiz bilan. Shutida xalqimiz bizdan rozi

bo'ladi Xalq rozi bo'lsa, ishimizda unum va baraka bo'ladi. Xalq bizdan rozi bo'lsa, Yaratgan ham bizdan rozi bo'ladi»

Buning uchun ijtimoiy-falsafiy g'oyalar transformatsiyasi joriy etishda quyidagi yondashuvlar keng tarzda vosita sifatida xizmat qildi.

OAV va ularga berilgan huquqiy normalar, vakolatlarni qaytadan ko'rib chiqishmasalasi ko'ndalang qo'yildi. Ma'lumki, fuqarolarimizning axborot sohasidagi huquq va manfaatlarini ta'minlash, davlat va jamoatchilik o'rtasida ochiq va samarali muloqot olib borish bo'yicha ommaviy axborot vositalarining roli va ta'sirini oshirish maqsadida 2014 yil 5 mayda «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida»gi qonun qabul qilingan. Mazkur Qonun ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatining yanada shaffof, ochiq bo'lishini, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlardan, respublikamizda va undan tashqarida yuz berayotgan voqea-hodisalar haqidagi fikrlar xilma-xilligi va siyosiy plyuralizmni hisobga olgan holda amalga oshirilayotgan davlatning ichki va tashqi siyosatidan aholining to'liq xabardorligini ta'minlash yo'lida muhim huquqiy asos vazifasini bajarmoqda.

Ijtimoiy-falsafiy g'oyalarni o'rganishda ijtimoiy so'rovnomalarni tashkil etish va bu harakatlarning amaldagi faoliyati sifatida sayyor qabulxonalar, mahallalarga biriktirilgan ziyolilar ya'ni "bir mahllaga bir ziyoli ma'naviy homiy" shiori ostidagi tashkil etilgan tadbirlar xalqning nafaqat turmush tarzi va ijtimoiy munosabatlari balkim ularning kelajakdagi hayotlarini to'g'ri anglab yetish masalalari, davlat organlarining boshqaruv islohatlarini, xalq ongiga to'g'ri shakillantirishiga ko'maklashish vazifalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021 yil 19-yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Yig'ilishda mahallalardagi ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi. "Bir ziyoli – bir mahallaga ma'naviy homiy" tamoyili asosida har bir mahallaga professor-o'qituvchi va taniqli ziyolilar biriktirilishi ma'lum qilindi.

So'z erkinligi-insonning asosiy shaxsiy va fuqarolarning siyosiy huquklaridan biri; hozirgi davrda aksariyat mamlakatlarda "axborot erkinligi" deb ataladigan umumiy huquqning tarkibiy qismi. Bu borada yurtimizda olib borilayotgan islohatlardan quyidagilarni asosiysi sifatida qabul qilamiz ya'ni "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 05.07.2021 yildagi O'RQ-699-sonini fikrimizning asosi sifatida qarashimiz mumkin.

Ijtimoiy-falsafiy g'oyalar transformatsiyasi tushunchasi va uning namoyon bo'lish xususiyatlari izohlashda falsafa tarixida insonga murojaat etmagan, inson moddiy va ma'naviy borlig'ining turli tomonlarini bevosita yoki bilvosita tahlil qilmagan faylasuf yoki falsafiy yo'nalishni topish deyarli mumkin emas. Aksariyat falsafiy va diniy tizimlar katta olam yoki

makrokosmga zid o'laroq, insonga mikrokosm yoki kichik Koinot sifatida qarab, uni butun olamni tushunish kaliti deb hisoblaganlar.

Faylasuflar inson sirining tagiga yetish borliq jumbog'ining tagiga yetish bilan barobar ekanligini qayta-qayta anglab yetganlar. Zero Forobiy aytganidek - "Odamlar o'zlarining xos xususiyatlariga va tabiiy ehtiyojlariga ko'ra jamiyat tuzadilar. Ularning harakat va fe'llarini dastavval bora-bora odatlarga aylanadigan tabiiy qobiliyatlar belgilaydi"

O'z-o'zingni angla va shu orqali dunyoni anglaysan. Dunyoni insonning teran qatlamlariga kirmasdan sirtidan bilishga bo'lgan barcha urinishlar narsalar haqida faqat yuzaki tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Insondan sirtga qarab harakat qiladigan bo'lsak, narsalar mohiyatini hech anglay olmaymiz, zero bu mohiyat insonning o'zida mujassamlashgan.

Transformatsiya-(lot. transformatio — qayta o'zgarish, qayta hosil bo'lish)

Kishilar kundalik hayotlarida turlicha ko'rinishlardagi zaruriyatga duch kelib turadi. ular o'z faoliyatlarining obyektiv sharoitlarini tanlab olishda o'z bilganlaricha ish ko'ra olmaydilar. balki ayni shu sharoitlar talablaridan kelib chiqib harakat qiladilar. shu bilan birga, zaruriyat qonunlarining amal qilishi avtomatik tarzda har bir aniq olingan hodisada ro'y bermay, balki xiyla katta hodisalar doirasida, ularning o'zgarishi va rivojlanishida namoyon bo'ladi.

Yurtimizda olib borilayotga shaxs mexanizmiga qaratilgan tushunchalar zamirida siosiy barqarorlik tizimini joriy etish, siyosiy erkinlik xayot kechirish uchun zarur xuquq va erkinliklarning mavjudligi bilan tavsiflanadi. Taraqqiy etgan jamiyatda davlat insonning xaqxuquqlarini kafolatlaydi. Saylash – saylanish xuquqi, adolatli davlat tizimi, xalqning davlat axamiyatiga molik masalalarni xal qilishdagi hal qiluvchi ishtiroki, ya'ni demokratik xuquq va erkinliklardan foydalanish siyosiy erkinlik tushunchasida ifodalanadi.

Hozirgi davrda O'zbekiston rivojlanishining yo'nalishi hamkorlik va birlikni mustahkamlashga, ayniqsa, Markaziy Osiyo mamlakatlarida madaniyat, din va urf-odatlarini hisobga olib integrasiyalashuv jarayonini amalga oshirish, mintaqada sivilizasiyalararo ziddiyatlar keskinlashuvining oldini olishga, madaniyat va qadriyatlarni o'rganish, avaylab-asrash, davrga moslashtirishga, mavjud sivilizasiyalar o'rtasidagi umumiy tomonlarni topish, sivilizasiyalarni sintezlashtirishga qaratilgandir.

O'zbekiston hozirgi davrda jahon sivilizasiyasi sari rivojlanib bormoqda. Bu rivojlanishda o'ziga xos va o'ziga mos an'analar, betakror noyob xususiyatlarini saqlanib qolmoqda.

O'zbekiston jahon taraqqiyotiga ilm- fan, axloq, din, san'at, madaniyat sohasidagi ulkan yutuqlari bilan munosib hissa qo'shdi. Milliy mustaqillik yillarida o'ziga xos taraqqiyot yo'lidan borayotgan O'zbekiston o'z milliy qadriyatlari, ma'naviy merosi va boy madaniyatiga tayanib, G'arb va Sharqning umumbashariy qadriyatlari va tajribalarini ijodiy o'zlashtirib, jahon sivilizasiyasi yo'lidan bormoqda.

Shaxsning maqsad, g'oya va ideallari jamiyatdagi mavjud g'oya va mafkura bilan uzviy bog'liq ravishda shakllanadi. Shunday ekan jamiyat ongini davlat xalq ma'nfatlari, ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda kelajakda hatarsiz va barqaror jamiyatni barpo etishga qaratilgan jamiyatdir.

Shuni ta'kidlash joizki, ayrim kishilar millat, Vatan xalq manfaatlariga zid ravishda jamiyatdagi mavjud qonun-qoida va normalarni poymol etib, ko'proq g'arazli maqsadlarini amalga oshirishga va turli ixtiloflarni keltirib chiqarishga harakat qiladilar. Shuningdek, milliy totuvlik, tinchlik va barqarorlikka rahna soladilarva ma'naviy-axloqiy muhitni buzadilar. Bunday guruhga mansub bo'lgan kishilar:

- turli konfliktlarni keltirib chiqaruvchi buzg'unchi firibgarlar;
- hokimiyatga intiluvchi diniy ekstremistlar;
- korrupsiya va jinoyatchilik bilan shug'ullanuvchilar;
- giyohvandlar;
- poraxo'rlar;
- terrorchilar;
- shuhratparastlar va boshqalardir

Yuqoridagi fikrlardan shularni aytishimiz mumkinki bizning xalqimiz o'zining falsafiy qiyofasi sifatida vatanparvarligi, bolajonligi, oilaparvarligi, mehnatsevarligi, mehmondo'stligi va boshqa ijobiy xislatlari bilan alohida boshqa xalqlar va millatlardan ajralib turadi, shundayin ekan ijtimoiy falsafiy qarashlarni yangicha tarzda shakillantirish ijtimoiy jamiyat ko'tarinki ruh bilan qabul qiladi.

Biz turli xil g'oyalar, yot mafkuralar, salbiy illatlar avj olib gilabballashgan zamonda yashamoqdamiz, shundayin ekan biz o'zimizning milliy mentalitetimiz asosida yangicha turmush tarzini boshlamoq bu davr talabi sifatida tushunishimiz lozim.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki «O'zbek xalqi azaldan jamoat tuyg'usiga moyil. Biz to'yda ham, azada ham yonma-yon turib, oddiy kunlarda ham bir-birining holidan xabar olib, kattaning hurmatini, kichikning izzatini joy-joyiga qo'yib, beva- bechoralaming, yetimyesirlaming boshini silab, odamgarchilikni barcha narsadan ustun qo'yib yashagan insonlaming farzandlari bo'lamiz. Jamuljam boiib yashash tuyg'usi biz uchun hayot falsafasiga, hayot qoidasiga aylanib ketgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва обод демократик жамиятимизни барчамиз, биргаликда барпо этамиз.// Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд., -Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017.-Б-151
2. То'хтайев Х.Р. Ijtimoiy falsafa. O'quv qo'llanma - Toshkent. Universitet nashriyoti, 2022 yil, 352 bet
3. Falsafa asoslari. Nazarov Q. tahriri ostida.-t.:Sharq,2005
4. Uz.wikipedia.org/wiki/Transformatsiya#:~:text=Transformatsiya%20(lot.,genetik%20material%20almashinish%20usullaridan%20biri